

## MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA YUNESKO TASHKILOTINING HAMKORLIGI

**Erkinova Mehriniso Ro'Ziboyevna**

*Termiz davlat pedagogika instituti —Maktabgacha ta 'lim fakulteti,  
—Maktabgacha ta 'lim metodikasi kafedrasи o 'qituvchisi*

*[erkinovamehriniso7@gmail.com](mailto:erkinovamehriniso7@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada UNICEF tashkilotining tashkil etilishi, vazifasi va hamkorlik rejalar, maktabgacha ta 'lim tashkilotining UNISEF tashkiloti bilan hamkorlik jarayoni ish faoliyati hamda maktabgacha ta 'lim tashkilotining xorijiy tajribasi haqida batafsil yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *UNICEF tashkiloti; xorij tajribasi; ), Birlashgan Millatlar Tashkiloti; inklyuziv ta 'lim; erta yoshdagi bolalar ta 'limi; maktabgacha ta 'lim; kichik yoshdagi bolalar ta 'limi.*

**Key words:** *UNICEF organization; foreign experience; ), United Nations; inclusive education; early childhood education; preschool ed*

**Ключевые слова:** *организация ЮНИСЕФ; зарубежный опыт; ), Объединенные Нации; инклюзивное образование; дошкольное образование; дошкольное образование; дошкольное образование.*

O'z faoliyati orqali UNICEF har bir bolaning huquq va farovonligi ta'minlanishiga erishishga harakat qiladi. Ushbu majburiyatni amaliy harakatlarga aylantirish maqsadida biz hamkorlarimiz bilan birligida dunyoning 190 mamlakati va hududlarida ish olib boramiz va dunyodagi barcha bolalarning, bolalarning manfaatlari yo'lida harakat qilamiz. O'zbekiston bo'yab bolalar yangi o'quv yilini boshlar ekan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNICEF)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi manfaatdor tomonlarni inklyuzivlik va sifatli ta'limga e'tibor qaratgan holda maktabgacha va maktab darajasida ta'limni masalalariga yana bir bor e'tibor qaratishga chaqirmoqda.

Evropa va Markaziy Osiyodagi eng kambag'al oilalarning yosh bolalari savodxonlik va hisoblash bo'yicha asosiy ko'nikmalarni egallashda 2,5 baravar ko'proq orqada qolishadi. Ayni paytda O'zbekistonda ko'plab bolalarning bilim egallash ko'rsatkichlari kutilgan darajadan pastligicha UNESCO (inglizcha: United Nations Educational, Scientificand Cultural Organization — Birlashgan Millatlar Ta'lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti), Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tashkilotlaridan biri bo'lib, ikkinchi dunyo urushidan so'ng, 1946-yil tashkil qilingan. Bu tashkilotning qurilishiga, 1945-yil Noyabr oyida Londonda 44 davlatning vakillari qatnashgan holda qaror qilingan. Tashkilotning markazi Parijda. Uch organdan – Umumi yig'ilish, Boshqaruvi, Kotiblikdan iborat bo'lgan UNESCO tashkilotining asl maqsadi, ta'lim, bilim va madaniyatni, unga a'zo bo'lgan har bir davlatdagi Milliy komissiyalar orqali amalga oshirish. UNESCO – Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot; BMTning ixtisoslashgan

muassasasi. Davlatlar o‘rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko‘maklashish maqsadida 1946-yil tuzilgan. 188 mamlakat (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktyabrdan) a’zo (2004). UNESCO nizomiga ko‘ra, „... irqi, jinsi tili va dinidan qat’i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiyl hurmatni ta’minalash maqsadida ta’lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga“ ko‘maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. 400 ga yaqin xalqaro nohukumat tashkilotlar va jamg‘armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar UNESCO bilan hamkorlik qiladi. UNESCO byudjeti a’zo mamlakatlar badallaridan tashkil topadi. Tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yalpi savodsizlikka qarshi kurash, maorif tizimi va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, milliy madaniyatlarni o‘rganish va tarqatish, atrof muhitni va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, okeanografiya, geol., gidrologiya, sotsiologiya, kommunikatsiya va boshqalar sohalarda global ilmiy muammolarni hal etishda hamkorlik qilishdan iborat. Axborot va informatika – kommunikatsiya masalalari uning faoliyatida katta o‘rin egallaydi. Tashkilotga a’zo mamlakatlarda UNESCO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyalar tuzilgan. UNESCO ana shu komissiyalarga tayanib ish olib boradi. O‘zbekiston Respublikasining UNESCO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrda tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Bosh konferensiya UNESCOning oliv organi hisoblanadi. 2-yilda 1 marta uning sessiyalari o‘tkaziladi. Sessiyalar oralig‘ida Ijroiya kengashi (unga 58 davlat, jumladan, O‘zbekiston 1997-yil oktyabrda a’zo etib saylangan) ish olib boradi. Ijroiya kengashi har-yili 2 marta yig‘iladi. Uning 155-sessiyasining yakuniy yig‘ilishi Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgani (1998-yil 6-noyabr). Tashkilot qarorgohi Parijda, Bosh direktor (Konchiro, Matssura, 1999-yildan) boshchilik qiluvchi Kotibiyat ham shu yerda joylashgan. Tashkilot 50 dan ortiq axborotnama va 20 dan ortiq davriy nashrlar chiqaradi. Ulardan eng keng tarqalgani „UNESCO kuryeri“ jurnali (30 tilda nashr qilinadi), „Kelajak“ (ta’lim sohasidagi haftalik), „Muzey“, „Ijtimoiy fanlar xalqaro oynomasi“, „Tabiat va resurslar“, „Mualliflik huquqi bo‘yicha axborotnama“, „Ta’lim byurosi xalqaro axborotnomasi“, „Impakt: fan va jamiyat“ kabilardir. UNESCO har 2-yilda bir marta jahonda ta’lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya holati haqida ma’ruzalar chop etadi. UNESCO „Insoniyatning ilmiy va madaniy rivojlanishi tarixi“ (6 jild), „Islom madaniyatining turli jihatlari“ (6 jild), „Lotin Amerikasi davlatlari tarixi“ (7 jild), „Karib havzasi davlatlari tarixi“ (6 jild), „Afrika umumiyl tarixi“ (8 jild) kabi fundamental kitoblarni chop etmoqda. Shuningdek, 6 jildli „Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi“ xalqaro hamkorlik doirasida yaratilmoqda, unda 1navbatda mazkur mintaqaga davlatlari, jumladan, O‘zbekiston olimlari ishtirok etmoqda. Kitobning dastlabki 4 jildi 1992, 1994, 1996 va 1998-yillarda bosilib chiqdi. „Ipak yo‘li – muloqot yo‘li“ jahon dasturi UNESCOning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, u BMTning madaniy taraqqiyot bo‘yicha butun dunyo o‘n-yilligi (1989—99-yillar) tadbiri doirasida o‘tkazildi. UNESCOning sa’yharakati bilan butun insoniyat mulkini tashkil etuvchi buyuk madaniy va tabiiy yodgorliklar Jahon merosi ro‘yxatiga olindi. Joriy yilning 15-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vaziri Agrippina Shin hamda Yunesko Bosh direktorining ta’lim bo‘yicha o‘rinbosari Stefaniya Djannini bilan uchrashdi va ta’lim

sohasidagi masalalarни muhokama qildi. Uchrashuv doirasida maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish va erishilgan ilg'or natijalar, shuningdek kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasida rivojlanishning istiqbolli yo'naliishlari bo'yicha masalalar muhokama qilindi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish davlatning ustuvor yo'naliishlaridan biridir. O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlarining 4.2 bandiga muvofiq 2030-yilga kelib barcha o'g'il-qizlar boshlang'ich ta'limga tayyor bo'lislari uchun yosh bolalarni rivojlantirish, parvarishlash va maktabgacha ta'lim olish uchun sifatli tizimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lislarni ta'minlash borasida ijobjiy natijalarga erishdik. Respublika bo'yicha maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichlari 2017 yili 27% dan 2021 yilga kelib 62% gacha oshishi natijasida, bugungi kunga kelib 1,7 mln. dan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar, qolaversa O'zbekistonda 2019 yildan boshlab barcha bolalar uchun boshlang'ich ta'limda teng imkoniyatlar yaratish maqsadida maktabga borishdan bir yil oldin majburiy maktabgacha ta'lim tizimi joriy etildi. Bugungi kunda maktabga chiqish yoshidagi bolalarning 77 %i maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olindi, 2025 yilga borib ularning barchasini bir yillik majburiy bepul ta'lim tizimiga qamrab olinishi rejalashtirilganmiz" deya ta'kidladi, Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin . "O'zbekiston qisqa muddat ichida bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish darajasini deyarli 2,5 barobarga oshirishi, bir yillik majburiy ta'limga qamrab olish esa 77% ga yetgani, "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi va pedagoglarni malakasini oshirish bo'yicha qilingan ishlar tahsinga sazovordir"- dedi Yunesko Bosh direktorining ta'lim bo'yicha o'rinnbosari Stefaniya Djannini.Toshkent deklaratsiyasi 2030 yilgacha bo'lgan davrda erta yoshdagi bolalar ta'limining xalqaro kun tartibini belgilashga qaratilgan. Ushbu hujjat konferensiya doirasidagi maslahatlashuv jarayoni orqali tayyorlangan va imzolangandan so'ng BMTning oltita rasmiy tiliga tarjima qilinadi va YUNESKOga a'zo davlatlarga beriladi.

Deklaratsiya bir qator asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

- o'quv dasturlari va pedagogikaning sifati va dolzarbligini oshirish;
- barcha bolalar uchun teng va inklyuziv ta'lim xizmatlarini ta'minlash;
- favqulodda vaziyatlarda ta'lim olish huquqlarini himoya qilish va kafolatlash.

Bu va boshqa qator vazifalar zamirida pedagog kadrlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni keng joriy etish va sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi fundamental omillar mujassam.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. 32-33 b.

3. G'affarovna M. M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA XORIJY TILLARNI O'RGATISH USULLARI //Zamonaviy fan va ta'lif yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – S. 5-13.
4. MAMATQULOVA S. O. K. Q. BOLALARNI AQLIY QOBIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRIZ TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH //YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – S. 34-48.
5. Suvanova S. B. Q. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – S. 35-39.
6. Uralovich R. B. EDUCATION AND TRAINING BASED ON ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES IN PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 387-389.
7. Uralovich R. B. THE ROLE OF ETHNOPEDAGOGICAL VALUES IN HUMAN LIFE IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS //Novosti obrazovaniya: issledovaniye v XXI veke. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – S. 390-394.
8. Suvanova S. B. THE IMPORTANCE OF THE GAME IN THE CREATIVE DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //Oriental Journal of Education. – 2023. – Т. 3. – №. 03. – S. 1-5.
9. Allaberdieva K. K. Organizing integrated education in pre-school education //Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – S. 19-25.
10. Rayimov B. U. METHODOLOGY OF FORMATION OF ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES IN STUDENTS OF PEDAGOGIC HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – S. 333-336.
11. O'ktam qizi Mamatqulova S., Nurboyeva D. PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – S. 45-54
12. Suyunova M. A. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – S. 39-44.
13. Allaberdieva K. K. MODERN APPROACHES TO INTRODUCING CHILDREN TO WORKS OF ART //“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – S. 25-31.
14. Rayimov B. U. MECHANISMS OF FORMATION OF ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES IN STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – S. 337-341.

15. qizi Tursunova R. R. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALASH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 48-50.
16. qizi Tursunova R. R. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALASH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 40-42.
17. Xamrayevna A. K. BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 12. – S. 324-327.
18. Inadullayeva S. Q. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA TURLI YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 43-47.
19. Kumri A. Formation Of Creative Abilities For Students At Presidential Schools Based On Akmeological Approach //International Journal of Advanced Science and Technology. ISSN. – 2005. – T. 4238. – S. 2054-2057.
20. TA G'ayratovich MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEDIAVOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (35), 239-242
21. KS Khudoyberdievna //The pedagogical culture of the educator in the formation of a sense of national pride in preschool adults//Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12 (4), 109-115
22. Erkinovna U. S. ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN PRESCHOOL EDUCATION //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 6. – C. 72-75.
23. TA G'ayratovich MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA TABIATNING O'RNI HAQIDAGI SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING FIKRLARI // Scientific Impulse 1 (12), 349-354
24. U.S.Erkinovna. TARBIYACHI NUTQIGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR // INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 144-150
25. KS Xudoyberdiyevna //MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG 'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G'URUR HISSINI ShAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI//INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 67-79
26. SX Kadirova//Formation Of National Attention In Innovative Education-Preschool Educational Schools//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. A peer ...
27. U.S. Erkinovna. TRIZ TEXNOLOGIYASI-MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA // Scientific Impulse 1 (12), 340-343

28. KS Xudoyberdiyevna, QY Jumayevna//The Importance of Innovation Technologies in The Development of Reading and Writing Skills of School Children.//Journal of Advanced Zoology 44

29. Erkinovna U. S. Technologies Using Interactive Methods in Developing Creative Skills of Preschool Children //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 17. – C. 15-17.